

**XORAZM VOHASIDA SOVET DAVRIDA SHAKLLANGAN
SUG'ORISH TIZIMI TARIXI (Toshsoqa magistral kanali misolida)**

Xudaynazarov Sarvarbek Shavkat o'g'li
Urganch RANCH texnologiya universiteti tadqiqotchi

Annotatsiya: Ushbu maqolada XX asrning 20–30-yillarida Sovet Ittifoqining agrar siyosati doirasida Xorazm vohasida sodir bo'lgan irrigatsiya tizimining tubdan transformatsiyasi tadqiq etiladi. Tadqiqotning markaziy obyekti sifatida Toshsoqa magistral kanali qurilishi misolida an'anaviy chig'ir usulidan zamonaviy muhandislik gidrotizimlariga o'tish jarayoni, "xalq hashari" usuli orqali ommaviy safarbarlik va yirik gidrotexnik inshootlar barpo etilishi arxiv materiallari asosida tahlil qilinadi. Maqolada irrigatsiya infratuzilmasini modernizatsiya qilishning ijtimoiy-siyosiy mexanizmlari, paxta yakkahokimligini (monokultura) mustahkamlashdagi roli, qisqa muddatli iqtisodiy yutuqlar hamda uzoq muddatli ekologik oqibatlar (Orol fojiasi, tuproq sho'rlanishi) yoritilgan.

Kalit so'zlar: Xorazm vohasi, Toshsoqa magistral kanali, irrigatsiya transformatsiyasi, xalq hashari, chig'ir usuli, Sovet agrar siyosati, paxta monokulturasi, ekologik inqiroz.

Annotation: This article studies the fundamental transformation of the irrigation system in the Khorezm oasis within the framework of Soviet agrarian policy in the 1920s–1930s. Using the construction of the Toshsoqa Main Canal as a case study, the research conceptually analyzes the transition from the traditional chigir (waterwheel) method to modern engineering hydraulic systems, mass mobilization through the "people's khashar" method, and the establishment of large-scale hydrotechnical structures based on archival sources. The paper reveals the socio-political mechanisms of irrigation modernization, its role in strengthening cotton monoculture, short-term economic achievements, and long-term ecological consequences (the Aral Sea disaster and large-scale soil salinization).

Keywords: Khorezm oasis, Toshsoqa Main Canal, irrigation transformation, people's khashar, chigir method, Soviet agrarian policy, cotton monoculture, ecological crisis.

Kirish

XX asrning 20–30-yillari Sovet ittifoqi tarixida keskin o'zgarishlar, ijtimoiy-siyosiy va iqtisodiy jarayonlarning chuqurlashuvi bilan ajralib turadi. Bu davrda boshlangan kollektivlashtirish va sanoatlashuv siyosati butun Sovet hududida, jumladan, O'zbekiston SSR tarkibidagi Xorazm viloyatida ham chuqur ijtimoiy-iqtisodiy silkinishlarga sabab bo'ldi. Ittifoq miqyosida agrar jamiyatni tezkorlik bilan industrial rivojlangan davlatga aylantirish strategiyasi sifatida e'lon qilingan bu siyosat, amalda, ko'plab hududlarda, ayniqsa, qishloq xo'jaligiga tayangan

jamiyatlarda, jiddiy demografik, iqtisodiy va madaniy talafotlarga olib keldi.

Xorazm viloyati o'zining qadimiy sug'orma dehqonchiligi, ko'hna hunarmandchilik an'analari va ijtimoiy tuzumi bilan ajralib turgan mintaqalardan biri bo'lib, bu siyosiy-iqtisodiy islohotlarning mahalliy xususiyatlarda qanday namoyon bo'lganini tahlil qilish nihoyatda muhimdir. Sovet hokimiyatining agrar sohada amalga oshirgan zo'ravon siyosati, xususan, majburiy jamoalashtirish, quloqlashtirish, davlatga don va mahsulot topshirish rejalarining kuchaytirilishi xorazmlik dehqonlarning hayot tarzini izdan chiqardi. Bu davrda minglab oilalar o'z yerlari va mol-mulkidan ayrildi, aholining ijtimoiy tarkibi o'zgardi, iqtisodiy barqarorlik izdan chiqdi.

O'zbekistonning boshqa hududlarida bo'lganidek, Xorazmda ham qishloq xo'jaligini, ayniqsa paxtachilikni rivojlantirish maqsadida irrigatsiya va melioratsiya tadbirlari jadallashdi.

Viloyat suv xo'jaligida amalga oshirilgan islohotlar natijasida paxta hosildorligida sezilarli o'sish kuzatildi. Agar 1928–1929 yillarda har gektardan 5–7 sentner hosil olingan bo'lsa, 1938 yilga kelib bu ko'rsatkich 12 sentnerga yetdi. Shu bilan birga, Xorazm viloyatining qishloq xo'jaligi sohasi, ayniqsa paxta yetishtirish samaradorligi respublikadagi boshqa viloyatlarga nisbatan hali ham orqada edi. Bu holat viloyatda suv xo'jaligida saqlanib kelayotgan jiddiy muammolar bilan bog'liq edi. Chunki shu davrgacha sug'orish tizimlaridagi har yili 12–14 million kub metr miqdorida tuproq ishlari faqat qo'l mehnati orqali bajarilardi¹. Shuningdek, viloyatdagi ekin maydonlarining 60 foizidan ko'prog'i katta xarajat talab qiluvchi chigir va nasos qurilmalari orqali sug'orilardi. 1938 yilda Xorazmda 25 mingdan ortiq chigir mavjud edi². Xorazm aholisi tomonidan sug'orish va ariqlarni tozalash ishlariga sarflanayotgan bepul mehnatning umumiy qiymati o'rtacha 30 million so'mga teng edi. Magistral kanalning yuqori qismi aholi tomonidan tartibga solinmaganligi sababli, bahor oylarida suv tanqisligi yuzaga kelar, ayrim hollarda esa suv ehtiyojdan ortiq darajada olinayotgan holatlar kuzatilardi. Ushbu muammolar qishloq xo'jaligining keyingi bosqichda rivojlanishiga jiddiy to'siq bo'lib kelayotgan edi.

Shu sababli qishloq xo'jaligini, ayniqsa paxtachilikni yanada rivojlantirish masalasi kun tartibiga chiqdi. Bu doirada Xorazmning irrigatsiya xo'jaligini muhandislik asosida tubdan qayta tashkil etish, ekin maydonlariga me'yoriy miqdorda suv yetkazib berish va yerlarni oyok suv bilan sug'orish tizimiga o'tish kabi vazifalar belgilab qo'yildi.

1938–1941 yillar Xorazm tarixi uchun yirik irrigatsiya qurilishlari davri bo'ldi. Aynan shu yillarda Xorazmning bir qancha magistral kanali muhandislik loyihalari asosida tartibga keltirildi, bir qancha yangi kanallar va yirik gidrotexnika inshootlari

¹ Матниёзов М. Хоразм тарихи. II жилд. – Урганч, 1997-Б.

² Xorazm viloyat davlat arxivi, F.41, ro'yxat 9, d.4, 36-43 betlar.

barpo etilib, foydalanishga topshirildi. Viloyat mehnatkashlari 1938-yildayoq vohaning eng muhim sug'orish tarmoqlaridan biri bo'lgan Pitnak hamda Kipchoq-Bo'zsuv kanallarini muhandislik asosida qayta qurishga muvaffaq bo'ldilar. Bu ikkala kanalning boshlang'ich qismi ilk bor mustahkam gidrotexnik inshootlar bilan jihozlandi. Ilgari an'anaviy usullar bilan barpo etilgan Pitnak va Kipchoq-Bo'zsuv kanallari endilikda shu hududdagi 15 ming gektardan ortiq yerlarni samarali sug'orish imkonini yaratdi³.

Xorazm mehnatkashlarining bu vatanparvarlik tashabbusini inobatga olgan holda, 1939-yil 11-avgust kuni O'zKP Markaziy Qo'mitasi va O'zSSR Xalq Komissarlari Soveti Toshsoqa bosh inshooti va magistral kanalini qurish haqida maxsus qaror qabul qildi⁴. Ushbu tarixiy qarorda birinchi navbatda Xorazmning eng yirik magistral kanallari — Polvon va G'ozovotni qayta qurish vazifasi belgilandi. Shuningdek, Toshsoqa kanalini qurishga tayyorgarlik ishlari rejalashtirildi va mas'ul rahbarlar tayinlandi. Qurilishga umumiy rahbarlik qilish maqsadida Bosh shtab tashkil etildi. Bosh shtab xalq irrigatsiya qurilishida siyosiy-ommaviy va xo'jalik-tashkiliy ishlarning yagona markazi bo'lib xizmat qildi. SSSR Oliy Soveti deputati Popita Mahmudova Toshsoqa qurilishining rahbari etib tayinlandi, viloyat partiya qo'mitasi kotibi M. Melnikov esa siyosiy ishlar bo'yicha uning o'rinbosari bo'ldi. Tajribali mutaxassis G. O. Xorst qurilmaning bosh muhandisi lavozimiga tayinlandi. Hukumat Xorazmdagi xalq irrigatsiya qurilishiga katta moddiy-texnik yordam ko'rsatdi. Toshsoqa bosh inshooti qurilishi uchun davlat byudjetidan bir yo'la 1 million 750 ming so'm mablag', shuningdek 85 tonna guruch, 10 tonna o'simlik yog'i va boshqa oziq-ovqat mahsulotlari ajratildi.⁵

Toshsoqa kanali qurilishining birinchi navbatida Xorazm viloyatidan 33 150 kishi va qardosh Toshhovuz viloyatidan esa 2 mingdan ortiq turkman kolxozchilari ishtirok qildi⁶. Qurilishning bu katta armiyasi viloyat partiya tashkilotlari rahbarligida qo'llarida baland bayroqlar va shiorlar yozilgan transparentlar ko'tarib, ashulalar sadosi ostida ishga keldilar. Butun trassa 10 ta qurilish uchastkalariga, har bir uchastka esa o'z navbatida prorablarga ajratildi. Irrigatsiya qurilishiga rahbarlikni qulaylashtirish uchun uchastkalar ikkita markazga — distantsiyaga birlashtirildi. B.I. Kurchanov boshchiligidagi birinchi distantsiya Toshsoqa magistral kanalining dastlabki 15 km da, J. Otashev boshchilik qilgan ikkinchi distantsiya shu kanalning 15–70 kilometrlikida qurilish ishlariga rahbarlik qildi⁷. Hamma uchastkalarda quruvchilar uchun shart-sharoitlar, turar-joylar, savdo do'konlari, oshxona, choyxona, kutubxona

³ Xorazm viloyat davlat arxivi, F.4, ro'yxat 1, d.8, 63-65 varaqlar..

⁴ Правда Востока, 1939, 12 avgust.

⁵ Xorazm viloyat davlat arxivi, F.41, ro'yxat 1, d.8, 181 varaq.

⁶ Xorazm viloyat davlat arxivi F.41, ro'yxat 1, d.8, 180-181 varaqlar.

⁷ Upradikning joriy arxivi, 1939 yildagi texnik-moliyaviy hisobot, 2-tom, 14 varaq.

va davolanish punktlari tashkil etildi.

Toshsoqa kanali birinchi navbatining murakkab vazifalari 28-sentabrga, ya'ni 25 kun ichida qurib tugatildi. Ana shu qisqa vaqt ichida kengligi 40 metr keladigan 70 km uzunlikdagi Toshsoqa magistral kanali qurilib bo'ldi. Yana 3,5 km uzunlikda yangi aylanma kanal chiqarilib, Polvon va G'ozovot kanallari Toshsoqa magistral kanaliga birlashtirildi. Shuningdek, 1940-yil 12-martda Toshsoqaning bosh qismida sekundiga 110 m³ suv o'tkazadigan temir-betondan eng yirik bosh injenerlik inshooti qurib tugatildi. Xorazmda Toshsoqa kanalining birinchi navbatida jami 1 620 000 m³ hajmda tuproq chiqarildi, 3,5 ming m³ temir-beton yotqizildi va 216 tonna hajmda metall konstruksiya ishlari bajarildi⁸.

Toshsoqa kanalining birinchi navbati qurilishining muhim ahamiyati shundaki, buning natijasida Xorazmning bir yuz ming gektardan ortiq ekin maydonida sug'orish ishlari tubdan yaxshilandi. Shu yilning o'zida o'n ming gektar maydonni qo'shimcha o'zlashtirish imkoniyati vujudga keldi. Viloyatda paxta hosildorligi bir yil ichida 11,6 foizga ko'tarildi⁹. Bundan ilhomlangan Xorazm mehnatkashlari viloyatda irrigatsiya qurilmalari ko'lamini yanada kengaytirib yubordilar.

Sobiq VKP(b) Markaziy Komiteti va SSSR Xalq Komissarlari Sovetining 1939 yil dekabrda "O'zbekistonда paxtachilikni yanada rivojlantirish choralari haqida" chiqargan Qarorida Xorazmda xalq irrigatsiya qurilishining navbatdagi vazifalari aniq belgilab berildi. Jumladan, Xorazmda 200 ming gektardan ortiq maydonda sug'orishni tubdan yaxshilash, shu munosabat bilan Toshsoqa kanali qurilishining ikkinchi navbatini davom ettirishni va Gurlan-Qilichniyozboy kanali qurilishini amalga oshirishni kun tartibiga vazifa qilib qo'ydi¹⁰.

1940-yil sentabrda Xorazm va Toshhovuz viloyati kolxozchilari yana bir muhim qurilish — Toshsoqa kanalining ikkinchi navbatini amalga oshirishga muvaffaq bo'ldilar. Toshsoqada o'tkazilgan bu galgi qurilishda Xorazm viloyatidan 50 ming va Toshhovuz viloyatidan esa 22 mingdan ortiq kolxozchi qatnashib, ular qurilish bosh shtabi va injener-texnik mutaxassislar boshchiligidagi fidokorona mehnat qildilar¹¹.

Toshsoqa kanali qurilishida alohida jonbozlik ko'rsatgan 502 kishi sobiq O'zSSR Oliy Soveti Prezidiumining faxriy yorliqlari bilan mukofotlandi. 940 quruvchi qurilish zarbdori degan faxriy nomga sazovor bo'ldi. Qurilishda zarbdorchasiga ishlagan turkman kolxozchilaridan 600 kishi sobiq TSSR Oliy Soveti Prezidiumining faxriy yorliqlarini olishga muyassar bo'ldi¹².

⁸ Матниёзов М. Хоразм тарихи. II жилд. – Урганч, 1997-Б.

⁹ Xorazm viloyat davlat arxivi, F.41, ro'yxat 1, d.10, 112 varaq

¹⁰ Xorazm viloyati hokimiyatining arxivi, F.1, ro'yxat 2, d.5, 65 varaq.

¹¹ Матниёзов М. Хоразм тарихи. II жилд. – Урганч, 1997-Б.

¹² Xorazm viloyat davlat arxivi, F.41, ro'yxat 9, d.4, 3–5 varaqlar.

Shunday qilib, 1938–1941 yillarda Xorazm xalq usuli bilan Qipchoq-Bo‘zsuv, Toshsoqa magistral kanali, Polvon-G‘ozovot kanali, Gurlan-Qilichniyozboy sistemasi hamda ularda 10 ga yaqin yirik zamonaviy gidrotexnik inshootlar qurilib, ishga tushirildi. Bularning barchasi Xorazm mehnatkashlarining oliy orzularini ro‘yobga chiqardi.

Xorazmda xalq irrigatsiya qurilishining muhim ahamiyati yana shundaki, bu tadbir vohaning 200 ming gektardan ortiq ekin maydonida sug‘orishni tubdan yaxshiladi. Faqat keyingi yil ichida janubiy Xorazmda sug‘oriladigan ekin maydoni 270 ming gektarga, shu jumladan Xorazm viloyatida 15,2 ming gektarga kengaydi. Paxta hosildorligi ham tobora ko‘tarilib bordi. 1941 yil oxiriga kelib 80 ming gektar paxta maydonining har gektaridan 14,6 sentnerdan ortiq paxta hosili olindi. Darhaqiqat, Xorazmda urush arafasida o‘tkazilgan xalq irrigatsiya qurilmalari viloyatning kelgusi porloq istiqboli uchun hal qiluvchi ahamiyatga ega bo‘ldi.

1930-yillar oxirida esa yirik infratuzilma loyihalari, jumladan, Toshsoqa magistral kanalining qurilishi xalq hashari asosida amalga oshirildi. Qurilish 1939–1941-yillar davomida o‘zbek va turkman xalqlarining jamoaviy mehnati bilan yakuniga yetkazildi. Kanal qurilishida bir vaqtda 35 ming nafarga yaqin odam ishtirok etib, ishlar belkurak, ketmon, arava va boshqa oddiy vositalar yordamida bajarilgan. Natijada Xorazmda 142 ming gektar, Toshhovuz viloyatida esa 74,5 ming gektar yer sug‘orish imkoniyatiga ega bo‘ldi.

XULOSA

Xorazm vohasining 1925–1991-yillar oralig‘idagi irrigatsiya tarixi — bu qadimiy dehqonchilik madaniyatining keskin industrial va siyosiy transformatsiyaga uchrash jarayonidir. Olib borilgan tadqiqotlar va arxiv ma‘lumotlarining tahlili quyidagi yakuniy xulosalarni chiqarishga imkon beradi:

Sovet davri agrar siyosati natijasida voha irrigatsiyasi asrlar davomida shakllangan an‘anaviy chig‘irliq usulidan voz kechib, yirik magistral kanallar va muhandislik inshootlari tizimiga o‘tdi. Ayniqsa, 1939–1941-yillarda Toshsoqa magistral kanalining xalq hashari usulida barpo etilishi mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy landshaftini tubdan o‘zgartirgan strategik burilish nuqtasi bo‘ldi.

Mustaqillik yillarida Toshsoqa kanali o‘zining strategik ahamiyatini yo‘qotmadi va vohaning asosiy suv arteriyalaridan biri bo‘lib qoldi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR VA MANBALAR RO‘YXATI

I. Arxiv hujjatlari

1. Xorazm viloyat davlat arxivi. F. 41, ro‘yxat 9, d. 4, 36–43-betlar.
2. Xorazm viloyat davlat arxivi. F. 4, ro‘yxat 1, d. 8, 63–65-varaqlar.
3. Xorazm viloyat davlat arxivi. F. 41, ro‘yxat 1, d. 8, 181-varaq.
4. Xorazm viloyat davlat arxivi. F. 41, ro‘yxat 1, d. 8, 180–181-varaqlar.

5. Xorazm viloyat davlat arxivi. F. 41, ro‘yxat 1, d. 10, 112-varaq.
6. Xorazm viloyat davlat arxivi. F. 41, ro‘yxat 9, d. 4, 3–5-varaqlar.
7. Xorazm viloyati hokimiyatining arxivi. F. 1, ro‘yxat 2, d. 5, 65-varaq.
8. “Upradik” (Suv xo‘jaligi boshqarmasi) joriy arxivi. 1939 yildagi texnik-moliyaviy hisobot, 2-tom, 14-varaq.

II. Ilmiy adabiyotlar

9. Матниёзов М. Хоразм тарихи. II жилд. – Урганч: Хоразм, 1997.

III. Davriy matbuot nashrlari

10. Правда Востока. 1939 yil 12 avgust soni.
11. “Тошсоқа канали” gazetesi. 1940 yil 5 aprel soni.

IV. Internet manbalar va rasmiy saytlar

12. Prezidentning Xorazm viloyatiga tashrifi haqida axborot. UZA.
<https://uza.uz/posts/56503>
13. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Xorazm viloyati kengashi sessiyasidagi nutqi. <https://president.uz/oz/lists/view/1147>
14. “O‘zbekiston qishloq va suv xo‘jaligi” jurnali, 2025 yil 8-son.
15. Prezidentning 2026 yil 3 martdagi yig‘ilishi haqida axborot.
<https://president.uz/oz/lists/view/8988>
16. Xorazmda yo‘l va suv infratuzilmasini yaxshilash uchun 1,6 mlrd dollar ajratiladi. Daryo.uz, 2026 yil 4 mart. <https://daryo.uz/2026/03/04/xorazmda-yol-va-suv-infratuzilmasini-yaxshilash-uchun-16-mlrd-dollar-ajratiladi/>